

ADABIY ASARLARDA VULGARIZM, VARVARIZM, ARGO, JARGO USLUBIY VA PRAGMATIK VOSITA SIFATIDA

Rustamova Sevinch

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti amaliy filologiya ta'lif yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1427885>

Annotatsiya. Ushbu maqola adabiy asarlarda uslubiy jihatdan farqlanuvchi frazeologik terminlar: vulgarizm argo va jargo so'zlarining tahlili haqida.

Kalit so'zlar: vulgarizmlar, argo, jargo, uslubiy bo'yodkorlik va vosita.

VULGARISM, BARBARISM, ARGO, JARGO AS A METHODIST AND PRAGMATIC TOOL IN LITERARY WORKS

Abstract. This article is about the analysis of stylistically different phraseological terms in literary works: vulgarism, argo and slang words.

Key words: vulgarisms, slang, slang, stylistic coloring and means.

ВУЛГАРИЗМ, ВАРВАРИЗМ, АРГО, ЖАРГО КАК МЕТОДИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. Статья посвящена анализу стилистически различных фразеологических терминов в литературных произведениях: вульгаризма, арго и сленга.

Ключевые слова: вульгаризмы, сленг, сленг, стилистическая окраска и средства.

Vulgarizm, argo va jargo so'zlar qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlar guruhiga kiradi.

Vulgarizmlar- haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar. Bu turdag'i leksemalar yoki ularning ma'nolari adabiy til vositasi sanalmaydi, ularni qo'llash nutq madaniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, biroq adabiy tilda bunday so'zlardan uslubiy vosita sifatida foydalaniladi.

Ushbu leksik qatlama so'zlarida ko'p hollarda emotsionallik va ekspressivlik bo'yog'i ifodalanadi, ya'ni bu qatlAMDagi so'zlar ko'p hollarda so'zlashuv uslubiga xos bo'ladi, adabiy uslubda muallif tomonidan nutqiy ta'sirchanlikni hosil qilish uchun ishlatiladi.

Vulgar so'zlardan badiiy adabiyotda muallif tomonidan har bir obrazning ichki dunyosini ochishda, ularning xulq-atvori va atrofdagilarning munosabatini real qilib ko'rsatishda, asosan, foydalaniladi. Olimlar vulgarizmlarga g'ayroaxloqiy so'zlar sifatida qarab ularni xarakter xususiyatiga ko'ra **so'kish, qarg'ish** va **haqorat** so'zlariga ajratadi. Quyidagilarga e'tibor qaratamiz: *E, haromi, bas deyman senga, shallaqi! Xo'rdbani ming shukur deb ichib o'tiraver.* (Oybek. "Bolalik")

Yolg'on gapirasani, xunasa, uyida bo'lmagansan. (T.M)

-Shoqollar orasida **tulki** bo'lib yashamoqchimisan? Tulkilarni tulki bo'lib, shoqollarni shoqol bo'lib qirmoqchimisan? Sen shunchalar befahmmisan? Bilib qo'y: shoqolu tulkilar bizdan avval ham bo'lgan, bizdan keyin ham qoladi.

Yuqorida keltirilgan parchalarni va ularda qo'llanilgan xarakter ifodalovchi sifatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Tohir Malik tomonidan xarakter ifodalovchi leksik birliklarning nechog'lik mahorat bilan ishlatilganini guvohi bo'lamiz.

Asar davomida ijobjiy sifatlarni ifodalash uchun ulug‘ martabaga oid so‘zlar yoki takallufomuz so‘zlar qo‘llangan bo‘lsa, salbiy xususiyatlarni ko‘rsatish uchun yomon deb bilingan hayvon nomlarida foydalanilgan. Masalan, *akademik - ijobjiy, tulki, shoqol – salbiy*

—Shaytanat qissasidagi taqdiri bir-biriga o‘xshamagan, qiyofasi-yu fe‘l atvor, dunyoqarashlari bir biridan tubdan farq qiluvchi obrazlar tarzida tasvirlangan insonlar goh oshkora, goh pinhona o‘zaro kurash olib boradilar.

Bu misollarni “O’zbek tilining izohli lug’ati”ga ko’ra ko’rib chiqadigan bo’lsak:

1. *Haromi- o’zaro nikoh qilinmagan erkak va ayoldan tug’ilgan bola.*

2. (*Ko’chma) shunday ma’noli so’kish, haqoratni bildiradi; iflos, yaramas. Masalan: sut ko’r qilgur, haromi Gitler oqpadar (G’.G’ulom)*

Xunasa- yaramas, ablah, razil.

Vulgarizmlar, shuningdek, faqatgina qo’pollikni so’kish qarg’ishlar bilangina ifoda qilmay balki, ishtirokchilarning ruhiy holati, xarakteri, muloqot vaziyati va shu kabilar haqida kitobxonda aniq tasavvur paydo qilishga ham xizmat qiladi. Bu esa uni pragmatik vosita sifatida o’rganish uchun asos bo’ladi. Masalan:

-Kulma, Zabar. Anovi so’takning ahvolini o’zing bilasan. Uyga bir so’m topib kelolmasa! Qo’lidan bir ish kelmasa! Ketiga tepganimga ikki yil bo’ldi,o’rtadagi o’g’il bahona, sirtiga suv yuqtirmaydi-ya! Bilaman, marjabozlik qilmoqchi bu. O’rgildim sizday marjabozdan! Holing menga ma’lum-ku. Qo’lingdan bir ish kelganida men bunday sarson bo’lib yurarmidim! Xuddi hech nima bo’lmagandek, “Uyingning kalitini tashlab ket” emish! Ijaraga qo‘yib pul ishlamoqchilar! “Yebsan”, dedim. Eshitding-ku hali. Ijara qo‘yadigan bo’lsam, o‘zim qo‘ymasmidim! K chemu eto mne! To‘rt pul chiqadimi, yo‘qmi, shuncha remontimning dabdalasini chiqazib tashlaydi. Bilaman, marjabozlik qilmoqchi bu. O’rgildim sizday marjabozdan! Holing menga ma’lum-ku. Qo’lingdan biror ish kelganida men bunday sarson bo’lib yurarmidim! (*Erkin.A’zam ”Zabarjad”*)

Dilyaning sobiq eri haqida dugonasiga qilgan hasratidan ayon bo‘ladiki, “erkakshoda”likning ham o‘ziga xos ijtimoiy-ruhiy sabablari bor. Bu yerda Dilya eridan ajrashib farzandini o‘zi yolg‘iz katta qilayotgani, sobiq erining moddiy manfaat uchun uning atrofida girdikapalak bo‘lishi, erlik or-nomusi yo‘qligi va shunga o‘xhash bir qator faktorlar mavjud.

Demak, vulgarizmlar faqatgina qo’pollikni ifodalash uchungina emas, balki muloqot ishtirokchilarining ruhiy holati, ijtimoiy turmush tarzi, xarakteri, muloqot vaziyati va shu kabilar haqida kitobxonda aniq tasavvur paydo qilishga ham xizmat qiladi. Bu esa uni uslubiy pragmatik vosita sifatida o’rganish uchun asos bo’ladi.

So’zlarni ko’chma ma’noda qo’llash orqali ham pragmatik ma’no ifodalanadi: - **Ilon bolasi- ilon!** *Balki otasi o’rgatgandir.* Gapda ko’rib turganimizdek, dialektal yoki adabiy tilga xilof bo’lgan birliklarni ko’rmaymiz lekin pragmatik jihatdan butun gapning ma’nosini bitta ya’ni insonni hayvonga qiyoslash “Ota-onva avlodlar o’rtasidagi xususiyatlar yoki xulq-atvor bir xil bo’ladi” degan mazmundagi ma’no hosil bo’lyabdi.

“Zabarjad” kinoqissasidan olingen parchani pragmatik tahlil qiladigan bo’lsak, ayolning ruhiy holatidagi o‘zgarishlar va nutqda qo’pol so’zlar ishlatilmasa-da gap ma’nosining salbiyligi ko’rinib turibdi. Ba’zan mualliflar qahramonning behayo, tarang hissiy-emotsional holati, alam, qahr-u g’azabi ifodalash uchun pragmatik vositalardan ustalik bilan foydalanadi.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da so’tak va marjaboz so’zlar tahlili quyidagicha:
So’tak-sodda, go’l, so’tak odam;
Marjaboz- (maynavoz so’zining dialektal varianti)- kamsituvchi, kulgi qiluvchi gap-so’z, xatti-harakat; mazax, ermak.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimim ham shundaki, unda boshqa leksik atamalarni ya’ni faqatgina so’zlashuv uslubiga xos bo’lgan, ko’cha tili hisoblangan so’z va birliklarni yoki faqat rasmiy uslubdagi so’zlar va iboralarni badiiy matnda obrazni shakllantirish uchun qo’llash mumkin. Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda, asardagi maqsad, vazifalardan kelib chiqqan holda, so’zlashuv nutqi qoliplari va elementlaridan, umumnutq so’zlaridan ham foydalilanadi: muallif nutqi, muallif tili shaklida berilayotgan bayon va izohlar, asosan, adabiy nutq me’yorlariga tayanadi, obraz va personajlar tilida esa funksional uslubning barcha turlaridan foydalilanadi.

B.O’rinboyev vulgarizmlarni ma’no ottenkasi va qo’llanish doirasiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladi: 1) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar; 2) kishining tashqi kamchiliginini ko’rsatuvchi vulgarizmlar; 3) so’kish, koyish ma’nosini ifodalovchi vulgarizmlar.

Quyidagi matnga e’tibor qaratamiz:

- *Do-od! – deydi sho ‘xligi tutib Zabarjad. – Bo ‘ldimi?*
- *Bo ‘Imadi. Qarmog ‘imni ko ‘rsataymi senga?*
- *Shunday deb bu devona bejoroq bir qiliqqa chog ‘lanadi.*
- *Qarmoq-parmog ‘ing boshingdan qolsin! He, jinni!*
- *Kim jinni? Kim jinni? He, onangni... Shal-lab!*

Zabarjad qochib eshiklarining oldiga chiqadi.

– *Shu sen aytgandaqa bo ‘lish ham qo’limdan kelmadi, e xudoning bandasi! – deydi Zabarjad o’ziga o’zi va beixtiyor peshonasini devorga tirab turib qoladi. (Erkin A’zam, “Zabarjad”).*

Vulgarizmlar og’zaki nutq leksikasi ichida ajralib turadi. Vulgar so’zlardan yozuvchilar badiiy asar qahramonlarining nutqiy xususiyatlarini ifodalash maqsadida foydalananadilar. Vulgar so’zlar orqali yozuvchilar salbiy obrazni namoyon etadilar. Shubhasiz, bu obraz o’quvchilarning nafratini qo’zg’aydi, asarning ta’sirchanligini, tasviriyligini oshiradi. Yuqoridagi matnda Zabarjad va Zokir o’rtasidagi muloqot aks etgan bo’lib, Zokirning bejo harakatidan jahli chiqqan Zabarjad uni qarg‘ab, haqoratlaydi. Bunga javoban Zokir uni so’kadi va “shal-lab” deb haqorat qiladi. Bir qarashda “shal-lab” hech qanday haqorat ma’nosini anglatmaydi ammo Zabarjadning o’ziga o’zi “shu sen aytgandaqa bo ‘lish ham qo’limdan kelmadi, e xudoning bandasi” deyishidan uning qo’pol ma’nosini oydinlashadi. Bu muallifning topilmasi bo’lib, avvalo qahramon nutqidagi alohidilik, o’ziga xoslikni yuzaga chiqarsa, ikkinchidan, personaj(muallif)ning haqoratga munosib bo’lмаган qizga to‘g’ridan to‘g’ri bunday ayblovni qo‘yishga istihola qilinganligini namoyon etadi.

Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so’zlarida o’ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik kabi bir qancha ifoda semalari juda ochiq ko‘rinib turadi. Bunday so’zlar nutqda nominativ ma’nolariga ko‘ra emas, ko‘proq konnotativ ma’nolariga ko‘ra yashaydi.

U soyadek sharpasiz, sharpadek soyasiz edi go'yo, shuning bilan ham atrofdagilarga yoqardi. Negadir sira kulishni bilmaydigan odamovi, o'gay, temirchi otasi ham, Ko'kalga hech o'xshamaydigan sho'x-shitroqi ukalari ham uni yomon ko'rishmasdi. Birgina onasi go'rdan olib, go'rga solishni qo'ymasdi:

- Suvsab o'lgur Ko'kal, suv opke!..
- O't-olovsiz o'tgur Ko'kal, o'tin yor!..
- Og'ilni murdasho ying kuraydimi, juvonmarg?!.
- Eshakka qara, bo'yning uzilgur, nima deb hangrayapti?!

Ko'kal jimgina borib Doniyorovning hovuzidan suv keltirar, jimgina o'tin yorar, jimgina og'il kurar, jimgina eshagini sug'orar edi. Hamma ishni jimgina, bo'yin burmay bajarardi. Onasi esa guzarga jar solib javrardi: "Ko'ka-al, Ko'ka-al!.." (Erkin A'zam, "Bog'bolalik Ko'kaldosh").

Matndan Ko'kal barcha ishlarni o'z vaqtida va jimgina bajarsa ham onasi uni huda-behudaga tinmay qarg'ayverishi, Ko'kal esa onasiga bir og'iz ham javob qaytarmasligi ko'rindi.

Buning sababi esa Mayram o'zining achchiq qismati alamini o'g'li Ko'kaldan oladi, uni sababchi deb biladi. Guyoki u aslida Ko'kalni emas, o'z qismatini qarg'aydi. Yuqoridagi misollardan ham ko'rish mumkinki, so'kish ko'proq erkaklar nutqiga xos bo'lsa, qarg'ash ayollar nutqiga xos. Ba'zan ayollar nutqida ham so'kish so'zlari ishlatilishining guvohi bo'lamiz va bunday ayollarni "erkakshoda" deb ataymiz.

H.Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" ilmiy qo'llanmasida argotizm va jargonizmlarni quyidagicha ta'rif berilgan:

Argotizm va jargonizmlar - biror argo yoki jargonga xos leksemalar. Argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibsotarlar, poraxo'rlar va boshqalarning «yasama tili»dir. Shuning uchun argo va jargonlar **ijtimoiy dialektlar** deb ham yuritiladi. Argotizmlar yashirin ma'no ifodalaydi. Masalan, otarchilar orasida yakan («pul»), ichuvchilar orasida novcha («araq»), qizil («vino») kabi.

Jargonizmlarda yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo'rttirib baholash ottenkalari ham mavjud boladi. *Masalan, talabalar jargonida: dum «topshirilmagan imtihon», «qarz»; jonli so'zlashuvda: yo'rg'a «yengil tabiatli», «buzuq» va boshqalar.*

Argotizm va jargonizmlar, asosan, jonli so'zlashuvda, tor doirada ishlatiladi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari ham uchraydi. *Masalan: Bu qora yer yutkurning yo'rg'a chiqarishini yetti uxbab tushida kim ko'ribdi. (Hamza. Paranji sirlari.) Gapni aylantirmang. Yod'liq joy. Yakan katta bo'ladi! («Mushtum», 1960, № 2).*

R.Sayfullayeva va B.Mengliyev va M.Qurbonovalar kabi olimlarning hammuallifligida tuzilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida esa argo va jargonlar quyidagicha ta'riflanadi:

Jargon qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi (frans. jargon). Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'raalohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og'zaki nutqida ishlatiladigan va ma'nosini boshqalar ko'p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi. *Masalan, programmistlar jargoni, talabalar jargoni, mahbuslar, o'g'rilar jargoni va artistlar jargoni shular jumlasidandir. Jargon umumxalq tilidan maxsus leksikasi va frazeologiyasi hamda yasovchi vositalarning o'ziga xos tarzda qo'llanishi bilan farqlanadi:*

1) talabalar jargoni: [yopmoq] (sessiyani tugatmoq), [yaxlamoq] (imtihondan qaytmoq), [qulqoq], (chaqimchi), [chizmoq], (qochmoq);

2) yoshlar jargoni: [g'isht], (xunuk), [sindirmoq], (lol qoldirmoq), [krutoy], (ketvorgan), [uxlatmoq], (aldamoq), [tashlashmoq], (tortishmoq), [boks], (dollar), [muzlatmoq], (harakatdan to'xtatmoq);

3) harbiy xizmatchilar jargoni: [dux], (yangi kelgan askar), [salyaga], (bir-ikki oy xizmat qilgan askar), [fazan], (xizmatning yarmini o'tagan askar), [ded], (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), [diskoteka], (oshxona naryadi).

Jargonlar tarkibi boshqa tildan olingen o'zlashma birlik bilan boyib boradi. Tez-tez yangilari bilan almashinib turadi. Mana shu tildagi ma'lum bir qatlarning shu so'zni qancha ko'p ishlatishiga qarab tilda o'z o'rmini topib boraveradi. Bu qatlarning so'zlarining ko'p qismi adabiy til me'yorlariga bo'ysinmagan ya'ni hali shu til qatlarning o'z o'rmini topmagan leksik qatlarning so'zlar sirasiga kiradi. Bu so'zlarining asosiy qo'llanish doirasi bu og'zaki so'zlashuv uslubidadir. Bu turdagagi so'zlar faqatgina ma'lum bir ijtimoiy qatlam uchungina tushunarli bo'ladi va, asosan, ko'p hollarda shu guruhga tegishli shaxslar bu so'zlardan foydalanadi.

Argo(frans. argot) zyrim professional va sotsial guruhning o'ziga xos tili. Argo bir necha til umsurlaridan iborat qorishiq va ko'p hollarda, boshqalarga tushunarsiz nutq turida namoyon bo'ladi. Argo nutqda kommunikatsiyaa predmetini sir tutish maqsadida qo'llaniladi:

1)o'g'rilar nutqida: [mandarin], (tilla), [akula], (panjara kesish uchun moslama), [kalamush], (o'z yaqinlarinikiga o'g'rilikka "tushadigan"), [urkagan], (tajribali o'g'ri);

2)mahbuslar nutqida: [maymun], (oyna), [shobla], (qalloblar guruhi).

Turli xil qo'llanmalarni o'qiganimizda ko'pincha argo va jargon atamasining izohi va misollari bir-biriga o'xhash tarzda uchratamiz. Chunki ikkala termin ham biror guruhga xos "til" hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tishim kerakki, ikkala terminning ham o'xhash taraflari mayjud lekin bular aynan bitta tushuncha degani emas. Bularni quyidagicha izohlash mumkin. Ya'ni argo va jargonning o'xhash jihatlari quyidagilar: 1)maxsus til: argo va jargon ikkalasi ham bir guruh yoki ijtimoiy toifa tomonidaan ishlatiladigaan maxsus tillar, ular umumiy tildan farq qiladi va faqat ma'lum bir auditoriya uchun tushunarli bo'ladi. 2) norasmiy til: ikkala atama ham rasmiy til qoidalardan chetlashgan va norasmiy shaklda foydalaniladi. 3) ijtimoiy funktsiya: argo va jarhon o'zlarining maxsus auditoriyasiga tegishli ekanligini ko'rsatadi, ya'ni ular biror ijtimoiy guruhni yoki kasbni ifodalaydi. Masalan, argo ko'pincha yoshlar, jinoyatchilar, yoki boshqa norasmiy guruhlar orasida ishlatiladi, jargon esa professional sohalar yoki kasblar (shifokorlar, dasturchilar) tomonidan foyydalilanadi.

Shu o'rinda ularning farqli jihatlari esa quyidagilar: 1) argo: ko'pincha yoshlar guruhi, jinoyatchilar, ko'chada o'sgan yoki pastki qatlamlarga mansub odamlar o'rtasida kuzatiladi. Bu so'zlar keng jamiyatda noto'g'ri yoki noxush holat sifatida qaralishi e'tibordan holi emas. Lekin badiiy asar tilida bu holatda muallif qahramonning qaysi qatlamga mansubligini ko'rsatib berish uchun yoki asarda reallikni kuchaytirish uchun qo'llaydi. Jargon: odatda, ma'lum bir kasb yoki soha vakillari, ya'ni mutaxassislar tomonidan ishlatiladi. Masalan, dasturchilar, o'qituvchilar, ilm-fan sohasidagi tadqiqotchilar o'zlarining ish faoliyatida ma'lum doiradagi jargonlardan foydalanadilar. 2) argo: ko'pincha, noan'anaviy, rasmiy bo'limgan va ba'zan jamiyatda "yo'q" yoki "tahqirlaydigan" so'zlar sifatida qaraladi.

Shuning uchun argo ba'zan noma'lum guruhlar uchun sirli yoki qasddan tushunarsiz bo'lishi mumkin. Jargon: ijtimoiy yoki axloqiy jihatdan neytral bo'lib, faqat ma'lum bir soha vakillari uchun tushunarli, kasbiy yoki ilmiy muloqot uchun zarur bo'lgan atamalarni o'z ichiga oladi. Badiiy asar tilida ham xuddi shu asnoda ya'ni biror bir ijtimoiy guruhning muloqoti uchun foydalaniladi.

Tohir Malikning "Shaytanat" asarida argo va jargon so'zlar uchraydi, chunki bu asar o'zining ijtimoiy qatlamlar va maishiy muhitga oid tasvirlari talaygina: 1) *yana bir gap gapirma, chopib ketaman!* Bu yerda "*chopib ketaman*" degan argo ifoda qo'llanilgan bo'lib, u "*tezda ketish*" yoki "*boshqa joyga chiqish*" ma'nosida ishlatilgan 2) *qani, yengil so'zlarni ayt, nima bo'ldi?*" *yengil so'zlar*" argo ifodasi

"*o'yamasdan aytigan so'zlar*", "*ma'nosiz gaplar*", "*o'zaro hazil*" ma'nosida qo'llanilgan 3) *u kompyuterda hakerlik qilishni o'rganyabdi*. Bu yerda "*hakerlik qilish*" jargon atamasi ishlatilgan bo'lib kompyuter tizimlariga kirish va ularni manipulyatsiya qilishni anglatadi.

Bu atama faqat kompyuter texnologiyalari va axborot xavfsizligi bilan shug'ullanuvchilar tomonidan tushuniladi. 4) *ular kodeksni biladi, shuning uchun ularni bosshqarish qiyin*. "Kodeks" va "*bosshqarish*" so'zları kasbiy jargon sifatida ishlatilgan. "Kodeks"-bu ma'lum bir qonunlar yoki qoidalar majmuyi, "*bosshqarish*" esa tizim yoki guruhni nazorat qilishni anglatadi. 5) *biz kriptovalyuta savdosi bilan shug'ullanmoqchimiz*. "*Kriptovalyuta*" jargon so'z bo'lib, u raqamli pul birligini anglatadi va asosan moliya va texnologiya sohalarida ishlatiladi.

Bu kabi og'zaki uslubga xos terminlar va birliklarning nutq ko'rinishlariga xoslanishi haqida gap ketganda, ularning badiiy asar tilida qo'llanishini alohida baholash kerak, chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili bir hodisa emas: badiiy nutq adabiy nutqning bir ko'rinishi, u, albatta, adabiy til me'yorlariga bo'ysundiriladi; badiiy asar tilida esa adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi: badiiy asardagi obraz va personajlar tilining qolipga solinishi shuni taqazo qiladiki, demak, badiiy nutq badiiy asar tilining yetakchi komponenti, ammo yagona komponent emas. Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda, asardagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, so'zlashuv nutqi qoliplari va elementlaridan, umumnutq qatlam so'zlaridan ham foydalaniladi: muallif nutqi, muallif tili shaklida berilayotgan bayon va izohlar, asosan, adabiy nutq me'yorlariga tayanadi (so'zlarning tanlanishi ham shunga asoslanadi), obrazlar va personajlar tilida esa funksional uslubning barcha turlaridan foydalaniladi.

REFERENCES

1. Tursunov. S, Jamolxonov. H va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.1992
2. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.T.2009. 125-bet
3. *O'TIL.-O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jiddlik. 1-,2-,3-,4-,5-jiddlari. T.: 2006-2008
4. Tohir Malik. Shaytanat. www.ziyo.com-2007.
5. Asqad Muxtor.Chinor. @ elektronkutubxona
6. Erkin.A'zam.Zabarjad kinoqissa. T.2008
7. G'.G'ulom.sut she'ri.